MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Termiz davlat pedagogika o'qituvchisi
Ergasheva Dilnoza Mamasharifovna
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Xursanova Aziza Oltiboy qizi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishning pedagogik va psixologik asoslari yoritiladi. Bolaning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda o'yin faoliyati, muammoli vaziyatlar, savol-javob usullari hamda ijodiy mashg'ulotlarning o'rni tahlil qilnadi. Shuningdek, tarbiyachi va ota-onalarning bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi roli ilmiy manbalar asosida ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar:

Maktabgacha ta'lim, mustaqil fikrlash,tafakkur, ijodkorlik, pedagogic metodlar, o'yin faoliyati, mantiqiy fikrlash.

Annotation:

This article discusses the pedagogical and psychological foundations of developing independent thinking in preschool children. The importance of play activities problem-based situations, question-and- answer methods, and creative tasks in the development of independent thinking is analyzed. In addition , the role of educators and parents in fostering independent thinking in preschool children is highlighted.

Keywords:

Preschool education, independent thinking, thinking, creativity, pedagogical methods, play activity, logical thinking.

Аннотатция

В данной статье рассматриваются педагогические и психологичеслие основы формирования самостоятелъного мышления у детей дошколъного возрата. Анализируется значение игровой деятелъности, проблемных ситуаций метода вопросов и ответов, а также творческих занятий в развитии самостоятелъного мышления. Также раскрывается ролъ воспитателей и родителей в развитии самостоятлъного мышления у детей.

Ключевые слова:

Дошколъное образование, самостоятелъное мышление, мышление, творчество, педагогические методы, игровая деятелъностъ, логическое мышление.

Maktabgacha yosh davri—inson hayotidagi eng muhim rivojlanish bosqichlaridan biridir. Aynan shu davrda bolalarning tafakkuri, tasavvur darajasi, nutqi va shaxsiy sifatlari shakllana boshlaydi.Zamonaviy ta’lim tizimida bolalarni faqat bilim bilan ta’minlash emas,balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini turli xil metodlar orqali rivojlantirish ham muhim vazifalardan biridir.

Mustaqil fikrlash – bu bolalarning muammolarini o’zi tahlil qilishi,savollarga javob topishi,yangi g’oyalar yaratishi va qaror qabul qilish qobiliyatidir. Mustaqil fikrlashni shakllantirish – bu shaxsning o’z hayotiy pozitsiyasiga ega bo’lishi, axborotni tanqidiy tahlil qilishi va tashqi ta’sirlarga berilmasligini anglatadi. Bu jarayon oiladagi ibrat va tarbiyadan boshlanib, maktabgacha talim tashkilotida tarbiyachi pedagoglar yordamida rivojlanadi, natijada kuchli, irodali va erkin fikrlash qobiliyatiga ega barkamol avlod voyaga yetadi. Tadqiqotlarga ko’ra, maktabgacha yoshdagi bolalarda tafakkur va tasavvur jarayoni o’yin, muloqot va amaliy faoliyat orqali shakllanadi. Bu jarayonda muammoli vaziyatlar yaratish hamda bolalarni erkin fikr bildirishga rag’batlantirish muhim pedagogik omil hisoblanadi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish orqali bolalarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mustaqil fikrlash – insonning o’z bilim va tajribasiga tayangan holda muammoni tahlil qilish, xulosa chiqarish va yangi yechm topish qobiliyatidir. Bolalarda bu qobiliyat asta – sekinlik bilan shakllanadi va ta’lim – tarbiya jarayonida rivojlanib boradi. Mustaqil fikrlash yuksak ma’naviyat va o’zlikni anglashning asosi hisoblanadi. Pedagog va psixologik olimlar (L.S. Vigotskiy, J. Piaje va boshqalar) fikriga ko’ra, bolaning tafakkuri faoliyat jarayonida rivojlanadi. Bola atrof-muhit bilan muloqot qilishi, o’yin o’ynashi va yangi tajriba orttirishi orqali mustaqil fikrlashni o’rganadi deb aytgan psixologik olimlar. Shuningdek,mustaqil fikrlash bolalarning shaxsiy rivojlanishida muhim omil bo’lib, ularning o’z fikrini erkin ifoda etishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishning pedagogik usullari

1. O’yin faoliyati

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o’yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi. O’yin jarayonida bola turli vaziyatlarni tasavvur qiladi, rollarni bajaradi va muammolarni hal qilishga harakat qiladi. O’yin jarayonida bolalarning bilimlari va tasavvurlari boyib, chuqurlashib boradi. O’yinda u yoki bu rolni bajarayotib,bola o’zining butun diqqatini o’yinga qaratishi lozim. Bola o’ynayotganda kishilar mehnati, ularning aniq harakatlari, munosabatlari to’g’risidagi tasavvuri yetarli emasligini sezib qoladi, buning natijasida kattalarga savol bera boshlaydi. Tarbiyachi bolalarning bunday savollariga javob berib, ularning bilimlariga aniqlik kiritadi. O’yin orqali tarbiyachi bolalarda ona- vatanga,o’z xalqiga boshqa millat kishilariga ijobiy munosabatni shakllantiradi. Bolalarda o’yin orqali jasurlik, to’g’rilik, o’zini tuta bilishlik kabi sifatlar shakllanadi. Masalan syujetli-rolli o’yinlarda bolalar biror narsa yoki voqea to’g’risida yetarlicha tasavvurga ega bo’lgandagina syujet, fikr yuzaga keladi.Misol qilib aytganda Dilnoza ona-bola o’yinida ona rolini o’ynayotib, bolalarini ovqatlantiradi, kiyintiradi, ular bilan yaxshi munosabatda bo’lib erkalaydi, ular bilan gaplashadi, kitoblar o’qib beradi. Bu o’yin bolada muloyimlik , g’amxo’rlik e’tiborlilik kabi yaxshi hislatlarni uyg’onadi .

Didaktik o'yinlarda esa bolalarning aynan bir qoida asosida o'ynashini talab qiladi. Bunda o'yin jarayonida biror bola o'yin qoidasini buzadigan bo'lsa, ikkinchi bola bu o'yinni buzmasligini aytib o'zi tuzatishga harakat qiladi. Didaktik o'yin kattalar tomonidan bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadida yaratiladi. O'yin jarayonida bolalar fahm – farosatlari topog'onliklari, diqqat va xotiralarini namoyish qiladilar. Bularning hammasi bolalarning o'z kuchiga ishonchini oshiradi va bolalarga estetik zavq beradi.

2.Muammoli vaziyatlar yaratish

Ta'lim jarayonida muammoli vaziyatli yaratish bolalarda fikrlash jarayonini faollashtiradi.Masalan tarbiyachi bolalarga savol beradi: "Muz qanday qilib tezroq eriydi?" Bolalar o'z fikrlarini bildiradi, tajribalar o'tkazadi va xulosaga keladi. Bu savolga ba'zi bolalar muzning ustiga qaynoq suv quyish kerakligini aytsa, ba'zi bolalar esa muzni issiq olovga tutish kerak degan fikr bildirishadi. Bunday mashg'ulotlar bolalarni mustaqil fikrlashga undaydi.Tadqiqotlarga ko'ra, muammoli vaziyatlar bolalarda yangi g'oyalar yaratish va bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ehtiyojini yuzaga keltiradi

3.Savol – javob metodidan foydalanish

Savol – javob metodi ta'lim jarayonida eng keng qo'llaniladigan usullaridan biridir. Ushbu metod bolalarning bilim darajasini baholash, ularda mustaqil fikrlash va muammolarni yechish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bu metod bolalarni mustaqil fikrlashga undaydigan samarali metodlardan biridir. Tarbiyachi bolalarga ochiq savollar berishi kerak. Masalan:

- Nima uchun yomg'ir yog'adi?
- Nima uchun daraxtlar yashil bo'ladi?
- Agar quyosh bo'lmasa nima bo'ladi?

Bunday savollar bolalarda tafakkur va erkin fikrlash jarayonini rivojlantiradi.Bolalarga ko'proq og'zaki savol-javob berish orqali ularning his-tuyg'ularini va nutqini ham rivojlantiradi. Bu metodlarni bolalarga ko'proq qo'llab turish lozim.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirishda pedagogning roli juda muhimdir. Pedagog bolalar uchun qulay, erkin va ijodiy muhit yaratib, ularni mustaqil fikrlashga undaydi. Bolalarga tabiat, jamiyat hodisalari, g'amxo'rlik qilish, yaxshilik va yomonlik, jasurlik, kamtarinlik kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.Tarbiyachi mashg'ulotlar jarayonida bolalarga tayyor javobni berishdan ko'ra , ularni o'ylashga, savol berishga va o'z xulosalarini vhiqarishga yo'naltiradi. Mashg'ulot davomida pedagog turli savollar, muammoli vaziyatlar va o'yinlar orqali bolalarning tafakkurini rivojlantiradi. Shu bilan birgalikda tarbiyachilar har bir bolaning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olib, individual yondashuv asosida ishlaydi. Pedagog har bir bolaning fikrini hurmat qiladi, ularni o'z g'oyalarini erkin ifoda etishga yo'l qo'yadi va to'g'ri fikrlagan bolalarni rag'batlantiradi. Har bir bolaning ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.Shu bilan bir qatorda bolada ham erkin fikrlash, ham turli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqil fikrlash ta'lim-tarbiya jarayonining muhim vazifalaridan biridir. Har bir bolaning mustaqil fikrlashi kelajakda yuqori yutuqlarga erishishida, ijodkorligida va kelajakdagi ta'lim jarayonida muvaffaqiyatlarga erishishi uchun muhum va zarur hisoblanadi.Uning dunyoqarashi kengayadi, atrofdagi insonlar bilan munosabatga kirishishda qiyinchiliklar yuzaga kelmaydi hamda fikrlash darajasi o'sib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.,Kayumova N., Azamova M. " Maktabgacha pedagogika". – Toshkent: Tafakkur bo'stoni. 2013. Darslik
2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent, 2018.
3. Vygotskiy L.S. Bola psixologiyasi va rivojlanish nazariyasi. -Moskva: Pedagogika, 1984.

4.Piaget J. Bolalarda tafakkurning rivojlanishi. – Moskva: Prosvesheniyae 1994.

5. Ergasheva Dilnoza. “Maktabgacha yoshdagi bolalarda sog’lom turmush tarzini shakllantirishda o’yin va o’yinchoqlarning o’rni”. 2022y

6.Pedagogika nazariyalari asoslari